Tadqiqotlar natijasidagi fikr-mulohazalarni umumlashtirgan holda fikrimizcha aholi daromadlari deyilganda, ularning ma'lum vaqt oralig'iда odatda kalendar yil davomida olgan pul mablag'lari va moddiy ne'matlari (bevosita mehnat qilish, mulklarini ishlatish, tadbirkorlik bilan shug'ullanish va boshqa xatti-harakatlarni amalga oshirish natijasida olinadigan daromadlar) summasi tushuniladi.

Ma'lumki, O'zbekistonda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida soliq qonunchiligidan ko'plab ijobiy o'zgarishlar kuzatildi, jumladan xorijiy mamlakatlar tajribalari ham inobatga olingan holda yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi ishlab chiqildi va amaliyatga tatbiq etildi. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Soliq kodeksiga muvofiq jismoniy shaxslarning daromadlari, jumladan soliq solinadigan mulkiy daromadlar tarkibida ham o'zgarishlar kuzatildi.

Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish nuqtayi nazaridan tasniflash masalasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bunda har bir mamlakatning soliq qonunchiligiga mos ravishda daromadlar tasniflanadi. Respublikamizda soliq qonunchiligi jismoniy shaxslarning daromadlari tarkibi bo'yicha mukammal ishlab chiqilgan bo'lib, soliqqa tortish yuzasidan jismoniy shaxslarning jami daromadlari tarkibini quyidagi ma'lumotlar asosida ko'rishimiz mumkin:⁶

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 60-son farmoni. //Xalq so'zi. 2022-yil 28-yanvar.

3 Sh.Mirziyoyev. "Milliy taraqqiyot yo'llimizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" Toshkent — "O'zbekiston" – 2017 y 126-b.

4 Sh.M.Mirziyoyev "Milliy taraqqiyot yo'llimizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 592 b.

5 U.S.Yuldasheva "Iqtisodiyotning transformatsiyalaniши jarayonida aholi daromadlarining shakllanishi va taqsimlanishi" iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Toshkent-2001. 67-bet.

6 O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 370-moddasiga asosan tayyorlangan.



- mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;
- mulkiy daromadlar;
- moddiy naf tarzidagi daromadlar;
- boshqa daromadlar.

Mamlakatimizda jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish nuqtayi nazaridan mulkiy (investitsiyaviy) daromadlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mulkiy daromadlarga foizlar, dividendlar, ishlab chiqarilmagan aktivlardan foydalanish uchun renta to'lovlari va intellektual mulkdan foydalanganlik uchun mualliflik haqi ko'rinishidagi tushumlar kiradi.

Daromadlar turli manbalardan tashkil etilishi, ularning daromadlariga nisbatan chegaralangan soliq munosabatlarini joriy etilish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu borada shuni ham ta'kidlab o'tish zarurki, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i faqat budget daromadlarini oshirishga xizmat qilish bilan chegaralanmasligi, balki aholi keng qatlamlarining turmush darajasini, ular daromadlari hamda to'lov qobiliyatlarini oshirishga ham xizmat qilmog'i lozim.

"Daromadlarini soliqqa tortish jarayonining jadallahishi XIX asrning birinchi yarimiga to'g'ri keladi. Umuman olganda daromad solig'i deyilganda – moliya yilida soliq solinadigan daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslar (fuqarolar)ning soliq solinadigan jami daromadlaridan, yuridik shaxslar (tashkilotlar, xo'jaliklar, korxonalar va b.)ning soliq solinadigan jami daromadi (foydasidan undiriladigan to'g'ri, umum davlat solig'i tushuniladi. Daromad solig'i Buyuk Britaniyada 1842-yildan, Yaponiyada 1887-yildan, Germaniyada 1891-yildan, AQShda 1913-yildan, Fransiyada 1914-yildan joriy qilingan. Sobiq SSSRda 1922-yil 16-noyabrdagi Dekretga ko'ra daromad-mulk solig'i degan umumiyl nom bilan joriy qilingan va 1924-yildan daromad solig'iga aylanrilgan hamda 1991-yilgacha ishchi va xizmatchilarining maoshidan tabaqalashgan shkala bo'yicha undirilgan".

Bulardan tashqari, xorijlik olimlardan G.Buehlerning "Taxation and the minimum of subsistence" maqolasida soliqqa tortilmaydigan minimum o'rganilgan. Ushbu maqolada G.Buehler - taqdim etilgan ta'minot (soliqqa tortilmaydigan minimum) aholining kun kechirishiga yetarli bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Soliqlar aholining turmush tarzi sharoitlarini o'zgartirish uchun emas, balki daromadlarning oshishi uchun xizmat qilishi kerakligini ta'kidlaydi".⁷

Walter A. Durham, Jr. and Grover William Ensleyarning "Revenue possibilities of the personal income tax" maqolasasi AQSh soliq qonunchiligining 1930–40-yillardagi holatini tavsiflashga qaratilgan bo'lib, soliq tushumlarida daromad solig'ining rolini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan chora tadbirlarning natijasi tahlil etilgan. Xususan, mualliflar 1936-yilda soliq qonunchiligiga kiritilgan o'zgarishlarning samarasini shartli misollarda bayon etadi. Bunda ikkita ollaning bir xil daromadlarga ega bo'lgan sharoitda ikki xil chegirmalarning qo'llanishi natijasida to'lanadigan daromad solig'i summalarini turlicha bo'lising sabablarini izohlaydi".⁸

"Harley L.Lutz "The privilege of personal income taxation" maqolasida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining davlat budjetidagi o'rni va soliq imtiyozlarni o'rgangan. Ushbu maqolada jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan beriladigan imtiyozlarning aholi daromadlarini oshirishdagi o'rni o'rganilib, Harley L.Lutzning ta'kidlashicha, davlat budjeti daromadlarning asosiy qismini jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tashkil etishi lozim. Muallif aholi daromadlarini oshirish maqsadida soliq imtiyozlari deklaratsiya asosida qo'llanilishi kerakligini ta'kidlaydi. Shuningdek, aholi daromadlarini oshirish maqsadida ular tomonidan amalga oshirilgan ijtimoiy xarajatlar bo'yicha soliq imtiyozlari berilishi lozimligini e'tirof etadi".¹⁰

"Thomas Piketty va Nancylarning "Income Inequality and Progressive Income Taxation in China and India, 1986–2015" maqolasida Xitoy va Hindistonda 1986–2008-yillarda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdor, aholi o'tacha daromadi va aholining yuqori daromadga ega qatlamlarining daromadlari o'sish tendensiyasidan kelib chiqib, 2009–2015-yillar uchun daromad solig'idan tushumning yalpi ichki mahsulotga nisbati va jami aholidagi daromad solig'i to'lovchilarning ulushini prognoz qiladi. Mualliflarning tahlillariga ko'ra, Hindistonda soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdor shu tarzda oshib borishi natijasida 2015-yilga kelib daromad solig'i to'lovchilarning yalpi ichki mahsulotga nisbati va aholi sonidagi ulushi o'zgarmasligini ta'kidlaydi. Xitoyda esa aholi daromadlarning o'sishi shu tarzda davom etsa, 2015-yilda daromad solig'idan tushum yalpi ichki mahsulotga nisbatan 9 foiziga ortishini ta'kidlaydilar".¹¹

7 O'zbekiston Respublikasi milliy ensiklopediyasi (D harfi) 207-bet.

8 G. Buehler "Taxation and the minimum of subsistence" Source: The American Economic Review, Vol. 23, No. 2 (Jun., 1933), pp. 234-244. Stable URL: <http://www.jstor.org/stable/253>.

9 Walter A. Durham, Jr. and Grover William Ensley "Revenue possibilities of the personal income tax" Source: The Bulletin of the National Tax Association, Vol. 25, No. 8 (May, 1940), pp. 231-235. Stable URL: <http://www.jstor.org/stable/41788057>.

10 Harley L. Lutz «The privilege of personal income taxation». Source: The Bulletin of the National Tax Association, Vol. 23, No. 1 (October, 1937), pp. 11-22. Stable URL: <http://www.jstor.org/stable/41786912>.

11 Thomas Piketty and Nancy Qian "Income Inequality and Progressive Income Taxation in China and India, 1986–2015" Source: American Economic Journal: Applied Economics, Vol. 1, No. 2 (April 2009), pp. 53-63. Stable URL: <http://www.jstor.org/stable/25760160>.



“Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’ining optimal shkalasini aniqlash zamonaviy optimal soliq solish nazariyasining asosiy masalalaridir. Uning rivojlanish assosi 1971-yilda Nobel mukofoti laureati J.Mirrlisning maqolasida o’z ifodasini topgan”¹². Ushbu maqolada u F.Ramseyning tahliliyi ta’rifini umumlashtirdi va kengaytirdi”¹³. Shuningdek, bu sohadagi keyingi tadqiqotlarga asos bo’lgan matematik modelni ilgari surdi.

Mirrlis modelining daromad solig’iga bergan ta’rifida hukumatning maqsadi sifatida jamiyat farovonligini maksimallashtirish yotadi. Hukumatning maqsadi – soliq shkalasi shunday tanlanishi kerakki, u umumiyl tushumning bir qismini davlat g’aznasiga yig’ishni o’zida ifodalasin.

“Mirrlis ishidan keyin chop etilgan Ye.Sadka maqolasida hayratda qoldiradigan darajada va bahsli nati-jalarni ifoda etadigan fikr bildirilgan¹⁴. Keyinchalik N.Stern va J.Sid tomonidan ularga mantiqiy tushuntirish berildi¹⁵. Bunda daromad shkalasining eng yuqori nuqtasida soliq stavkasi nolga teng bo’lishi kerak¹⁶. Shuh-hasiz, ushbu sharoitda soliq shkalasini yaratish mumkin emas. Shu ma’noda, Mirrlis va uning izdoshlari ijtimoiy farovonlik bo’yicha soliqlarning soddalashtirish tahlillarini olib borishgan. Ularning yondashuviga ko’ra, jismoniy shaxslarning daromadlarini oshirish jarayonida soliqlarni chiziqli va proporsional shkalalarga ajratish muhimligiga urg’u berilgan. Shuningdek, daromad solig’ining tabaqalanish tizimiga E.Sheshinskiy alohida e’tibor qarat-gan”¹⁷.

“Iqtisodiy adabiyotlarda soliqqa iqtisodiy tushuncha sifatida ko’plab ta’riflar hamda uning turli xil talqinlarini uchratish mumkin. Jismoniy shaxslarga daromad solig’ini solish – bu yana yangi yaratilgan qiymatning ma’lum bir qismini olish va qayta taqsimlashdir”¹⁸.

“Zamonamiz tadqiqotchi olimlari ham jismoniy shaxslarning daromadlari tarkibi, soliqqa tortish va undirish mexanizmi kabilar bo’yicha ilmiy tadqiqotlar olib borib, o’z xulosa va takliflarini shakllantirganlar. Jumladan, A.Sbejnev o’zining dissertatsiya ishida jismoniy shaxslarning daromad solig’i va undan chegirmalar haqida munosabat bildiradi. Soliq imtiyozi, soliq chegirmasi tushunchalarini tadqiq qilib, mazkur tushunchalarga mualliflik ta’rifini shakllantiradi”¹⁹.

V.N.Lapin tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda “jismoniy shaxslarning daromad solig’i va uning yig’iluv-chanaligini oshirish masalasi o’rganilib, ushbu yo’nalishdagи o’z fikr va mulohazalarini bayon etgan”²⁰.

Shuning uchun, muallif o’z o’rganishlari asosida bir nechta takliflarni ilgari suradi. Xususan, birinchidan, mazkur uy-joy tekinga berilishidan qat’i nazar beg’araz berish shartnomasi qilishi lozimligini va o’sha uy-joyda kimlar yashashi aniq ko’rsatilishi kerak. Bir vaqtning o’zida ichki ishlar xodimlari tomonidan shu uysda kimlar yashayotganligi nazorat qilib borilishi lozim. Agar boshqa shaxs yashayotgan bo’lsa, zudlik bilan soliq organlariga xabar qilishi kerak. Ikkinchidan, fuqaroning o’zi on-line ko’rinishida mazkur uysda yashayotganlarning holati haqida soliq va ichki ishlar organlariga xabar berib turishi kerak. Agar ikkala ma’lumot va davlat organlari tomonidan yig’ilgan ma’lumotlar bir-biridan farq qiladigan bo’lsa, bunday holda fuqaroga nisbatan eng yuqori stavkada moliyaviy jarima qo’llash maqsadga muvofiq.

Rus olimi A.A. Aksanova “Yevropa mamlakatlardan jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish masalasiga to’xtalib, ularda soliq stavkalari judayam yuqori ekanligini soliqqa tortishning salbiy tomoni sifatida keltirib o’tgan bo’lsa, soliqqa tortiladigan bazani hisoblashda oilaviy deklaratsiya topshirilishi hamda bir qancha xarat-jatlar soliq solinadigan bazani hisoblashda chegirilishini ijobji holat sifatida qayd etadi”²¹.

M.V.Pyanova “jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlarini soliqqa tortish masalasida olib borgan tadqiqotlarida mulklarni kadastr qiymatidan kelib chiqib, soliqqa tortish, jismoniy shaxslar mol-mulk solig’ini budjetga ko’proq tushishini ta’minalash bilan birga bu jismoniy shaxslarga 10 barobardan ko’proq soliq og’irligini keltirib chiqarib, daromad solig’ini ijtimoiy funksiyasini yo’qqa chiqaradi degan xulosaga kelgan”²².

A.A.Aksanova “jismoniy shaxslarning daromad solig’i bilan bog’liq masalada o’z tadqiqotini olib borar ekan, Rossiya Federatsiyasida progressiv soliq shkalasini joriy qilish taklifini kiritadi”²³.

- 12 Mirrlees J.A. An Exploration in the Theory of Optimum Income Taxation. Review of Economic Studies. 1971. No. 38. P. 175-208.
- 13 Ramsey F.A. Contribution to the Theory of Taxation // Economic Journal. 1927. No. 37. P. 47-61.
- 14 Sadka E. On Income Distribution, Incentive Effects, and Optimal Income Taxation// Review of Economic Studies. Vol. 43. P 261-268, 1976.
- 15 Stern N.H. On the Specification of Models of Optimum Income Taxation// Journal of Public Economics. 1976. Vol. 6. P. 123-162
- 16 Seade J. On the Shape of Optimal Tax Schedules// Journal of Public Economics. 1977. Vol. 7. P. 203-236.
- 17 Sheshinski E. The Optimal Linear Income Tax// Review of Economic Studies. 1972. Vol. 39. P. 297-302.
- 18 М.В.Романовский, О.В.Брулевская, Б.М.Сабанти Финансы. – М.: Юрайт, 2008. – 504 с.
- 19 А.А.Сбежнев “Вычеты по налогу на доходы физических лиц”. Автографат дисс. Москва. 2010. 10-бет.
- 20 В.Н. Лапин. “Налог на доходы физических лиц и пути повышения его собираемости”. Вестник. 2008. №2(21). 88-90 стр.
- 21 А.А. Аксенова “Налог на доходы физических лиц”: европейская практика администрирования налога. Интернет-журнал «Науковедение». Выпуск 3, май – июнь 2014.
- 22 М.В. Пьянова «Льготы по налогу на имущество физических лиц как инструмент реализации социальной функции налога». Финансовая аналитика: проблемы и решения. 16 (2016) 44-52.
- 23 А.А. Аксенова “Быт ли прогрессивной шкале по налогу на доходы физических лиц в России в ближайшем будущем?”. Вестник Евразийский журнал. 2018, №1, Том 10.Стр 1-7.



O.I.Izotova o'zining ilmiy ishlarida "Rossiya Federatsiyasida ham jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortishda progressiv shkalani joriy qilish lozimligini ta'kidlab, bunda ijtimoiy masalalar bilan bilan birga soliqqa tortilmaydigan minimum ham o'z aksini topishi va ayrim chegirmalar bo'lshi lozim ekanligini asoslaydi"24.

N.N.Semenova, G.V.Morozovalar "Yevropa ittifoqidagi ko'plab mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda jismoniy shaxslarning daromad solig'i bo'yicha chegirmalarini oshirish bilan, progressiv soliq shkalasi joriy qilish taklifini ilgari suradilar. Ular progressiv soliq stavkasining joriy qilinishi budgetga tushadigan soliq summasining oshishi bilan birga, soliq chegirmalarining joriy qilinishi hisobiga davlatning ijtimoiy yo'naltirilganlik masalasi ham bir mucha ijobiy tomoniga bo'lshini ta'kidlaydilar" ²⁵.

S.P.Pavlenko o'zining tadqiqotida e'tiborini aynan "jismoniy shaxslarning daromad solig'i huquqiy asoslariga qaratadi. Bunda Rossiya Federatsiyasi soliq qonunchiligi uchun bir qator bir-birini to'ldiruvchi normalar taklifi ishlab chiqilgan" ²⁶.

A.A.Agapova o'z tadqiqot ishida "ijtimoiy soliq chegirmalari budgetga soliq tushumlarini tushishini kamaytirish bilan birga, ta'lif va tibbiyat xizmatlaridan foydalinish hisobiga inson kapitalining samaradorligini oshishiga olib kelishini ta'kidlaydi. Bundan tashqari jismoniy shaxslarning deklaratsiyalash tizimiga o'tishni tadqiqot qilgan holda, deklaratsiyalash tizimiga to'liq o'tish va undagi bir qator qilinishi lozim bo'lgan ishlarni sanab o'tadi. Oilaviy daromadlarni deklaratsiyalash tizimini joriy etish taklifini beradi" ²⁷.

Iqtisodchi olimlarning fikr-mulohazalariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, xorijlik olimlar tomonidan mavzu doirasida ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Tadqiqotlar jismoniy shaxslarning daromadlari tarkibidan to'undan undiriladigan soliqlar hamda shu soliqlarning yig'iluvchanligigacha bo'lgan masalalarni qamrab olgan.

Yuqorida aholining daromadlaridan undiriladigan daromad solig'i to'g'risida ko'plab olim va iqtisodchilar o'zlarining ilmiy qarashlarida fikrlarini bayon etganliklariga e'tibor qaratdik. Bu borada mamlakatimiz iqtisodchi olimlari A.Vaxobov va A.Jo'rayevlarning fikrlariga ko'ra, "jahon amaliyotida ijtimoiy himoya muhtoj bo'lgan shaxslar uchun soliq imtiyozlari va yuqori daromad oluvchi shaxslar uchun progressiv stavkalar belgilash ham qo'llanadi, ya'ni aholining kam daromad oladigan qismini ijtimoiy himoya qilish maqsadida daromadlarning bir qismi qayta taqsimlanishi e'tirof etilgan" ²⁸.

O.Abdurahmanov "jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar mohiyatini ochishda unga quyidagicha ta'rif bergan: jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar, bu fuqarolarning har qanday qonuniy faoliyati manbalari asosida oladigan shaxsiy daromadlaridan davlat foydasiga o'tkazadigan ekvivalent siz majburiy to'lovlaridir" ²⁹.

A.Adizov "jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarga umumillashtirilgan holda "Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar – davlat va jamiyat tomonidan majburiyat sifatida ko'rsatiladigan xizmatlar haqi bo'lib, ularni mablag' bilan ta'minlash maqsadida qonun tomonidan belgilab qo'yilgan hajm va o'rnatilgan muddatlarda davlat ixtiyoriga majburiy ravishda undiriladigan to'lovdir" – deya ta'rif bergan" ³⁰. "Mazkur ta'rifning xususiyatlari jihat shundaki, uning muallifi ba'zi xorijiy iqtisodchilar singari soliqlar borasida aholi mas'ulligini ta'kidlash bilan cheklanmagan, balki davlat ham o'z zimmasidagi majburiyatni adolatli tarzda bajarishi lozimligini ta'kidlaydi hamda mazkur majburiyat soliqlar orqali yig'ilgan mablag'larni xalq manfaatidan kelib chiqqan holda tejamli sarflash va bu borada to'lovchilarga batafsil ma'lumotlar berib borish lozimligini uqtiradi" ³¹.

N.Jumayevning ta'kidlashicha, "mamlakatimizda 2019-yildan joriy yangi soliq konsepsiyanining eng asosiy g'oyasi – soliq yukini kamaytirish, sodda barqaror soliq tizimini yaratish, iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirish, tadbirkorlar va investorlar uchun qulay muhit yaratish imkonini berdiki, buning natijasida mamlakatimizga xorijiy investitsiya global oqimi kirib keldi va bu bilan molliyaviy ta'minot, iqtisodiyot erkinligi va uni tartibga solish mexanizmining mutanosib yuritishiga erishish uchun munosib qadam tashlandi" ³².

Mamlakatimiz iqtisodchilaridan A.Islamqulov "jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ahamiyati, jismoniy shaxslarning soliq to'lovchi maqomini aniqlash tamoyillarini, ushbu soliq turi soliq stavkalarining

24 О.И. Изотова "Перспективы реформирования налога на доходы физических лиц как инструмента социальной политики государства". Автореферат дисс. Москва. 2015.

25 Н.Н. Семенова, Г.В. Морозова "Особенности налогообложения доходов физических лиц в странах европейского союза". УДК 336.02.

26 С.П. Павленко "Правовое регулирование налога на доходы физических лиц". Автореф.дисс. Москва. 2010.

27 А.А. Агапова «Развитие налогообложения доходов физических лиц в Российской Федерации». Автореф.дисс. Москва. 2007.

28 Vahobov A.V., Jo'rayev A.S. "Soliqlar va soliqqa tortish" "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahriri Toshkent-2009. 448 b.

29 Abduraxmonov O. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar tizimi va uni takomillashtirish masalalari./ Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2005. B. — 52-53.

30 Adizov A. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar tizimini takomillashtirish./ Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2004. B. — 25.

31 A.A.Bozorov Deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlar va ularni soliqqa tortishni takomillashtirish. i.f.f.d (PhD) darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi. 2019-y.

32 Жумаев Н., Номанова Ю. Современное состояние развития глобальных потоков иностранных инвестиций // "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий-электрон журнали, №4, 2021 йил.



so'nggi o'n yillikdagi o'zgarish dinamikasini, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumlarining budget daromadlari va bevosita soliq tushumlaridagi ulushini, rivojlangan davlatlarda jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortish xususiyatlarini yoritgan holda uni O'zbekistonda qo'llash yuzasidan fikrlarini, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumlarining mahalliy budget daromadlarini mustahkamlash maqsadida ushbu soliq tushumlarini to'lig'icha hududlarning o'ziga o'tkazib berish lozimligini, soliq solinmaydigan minimumni joriy etishni taklif qilgan"³³.

Sh.Qiyosov tomonidan "jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishni takomillashtirish bo'yicha tadqiqot olib borilgan. Tadqiqot ishida jismoniy shaxslarning mulkni ijara berishdan olinadigan daromadlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha taklif ishlab chiqilgan. Xususan, jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish amaliyotida mulkni ijara berishdan olinadigan daromadlarda ikki va undan ortiq mulk obyekti ijarasidan daromad uchun oshirilgan stavka qo'llashga oid taklif berilgan"³⁴.

"Yuqorida keltirilgan tahliliy ma'lumotlar hamda sohaga tegishli iqtisodchi olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarga tayanib, jismoniy shaxslarning sotiladigan mulklarning egallagan maydoniga nisbatan joylashgan joylari bo'yicha eng kam me'yorlar belgilash va mulklarni ijara berishning eng kam me'yorlariga alohida, boshqa shaharlar (viloят markazi hisoblanmagan) uchun minimal miqdorlarni joriy etish fikrimizcha o'zining ijobjiy natijasini beradi"³⁵.

Mahalliy budgetlarning daromad bazasini mustahkamlash maqsadida 2018-yildan boshlab soliqlar va yig'imlarning ba'zi turlari jumladan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha tushumlarni mahalliy davlat hokimiyyati organlari tasarrufida qoldirish, natijada ularning o'z daromad bazasini kengaytirish-dagi faoliyatini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratildi.

Yuqorida qayd etganimizdek, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i shunday bir ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatga ega bo'lib, ushbu soliq har bir aholining hayotida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda olib borilayotgan puxta soliq siyosati barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish orqali mamlakatning gullab-yashnashi va aholi turmush farovonligini yanada yuksaltirishda eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagilarni taklif qilamiz:

Mahalliy budgetlarning daromadlarini barqarorlashtirish jarayonida soliqlarning ahamiyatini oshirish hamda mahalliy budget daromadlari tarkibini tahlil qilish natijasida quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Hozirgi kunda mahalliy budgetga biriktirilgan daromadlar turlari shuningdek qonunchilik asosida mahalliy soliqlar ro'yxatini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Mahalliy budget daromadlari barqarorligini ta'minlash maqsadida umum davlat soliqlaridan ajratmalar miqdorlarini har yili qayta ko'rib o'zgartirish kiritmasdan, hech bo'limganda 3-yilda bir marta o'zgartirish kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Bu esa, o'z navbatida mahalliy budget daromadlari barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati

1. Рикардо Д. Сочинения. Т1. Начало политэкономии и налогового обложения. Пер. с анг. –М.: Госполитиздат. 1955. – 186 с.
2. Г.В. Морозова, О.В. Дерина "Сравнительный анализ становления и развития системы налогообложения доходов физических лиц в РФ и зарубежных странах". УДК 336.221.225.
3. Аззамов А.Т. (2019) Жисмоний шахсларни солицда тортиш амалиётини таомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Б.17-22.
4. Власова Ю.А., Абрамова А.И. (2015) Проблемы укрепления доходного потенциала региональных бюджетов в россии на примере калужской области//Креативная экономика. Т. 9. № 10. С. 1255-1276.
5. Селезнев А., Доценко Н. (2016) Доходный потенциал местных бюджетов и его общегосударственное значение // Экономист. № 9. –С. 12-22.
6. Серебрякова О.В. (2017) Финансовая стабильность муниципальных образований как приоритет в развитии бюджетной и налоговой политики на местном уровне // Региональная экономика: теория и практика. –№ 11. – С. 126-131.
7. Худойкулов С.К. (2019) Солик тушумlarinini прогноз қилиш методологиясини таомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари доктори (DcS) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси автореферати. Б. 14-16; 20-21, 28-29.
8. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi-Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi 2020. –640 b.

33 A.X.Islamkulov Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining byudjet daromadlarini shakllantirishdagi o'mi. BOZOR, PUL VA KREDIT//РЫНОК, ДЕНГИ И КРЕДИТ. Ilmiy-amaliy oylig jurnal. 2/2015. B-45-52.

34 Qiyosov Sh.U. Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishni takomillashtirish: i.f.f.d (Doctor of Philosophy) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya Avtoreferati. – Toshkent, 2019.

35 A.A.Bozorov Deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlar va ularni soliqqa tortishni takomillashtirish. i.f.f.d (PhD) darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi. 2019-y.

**Internet materiallari**

1. 1.Cathy Hughes, Sarah Sayce, Pete Wyatt (2020) Implementing a land value tax: Considerations on moving from theory to practice. Land Use Policy8 February. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0264837719315704>. Peter Wyatt (2019) From a property tax to a land tax – who wins, who loses?. Land Use Policy31 August. <https://www.sciencedirect.com>
2. 2.Изотова О.И. Перспективы реформирования налога на доходы физических лиц как инструмента социальной политики государства. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва-2014. elib.fa.ru
3. 3.A.A.Bozorov Deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlar va ularni soliqqa tortishni takomillashtirish. i.f.f.d (PhD) darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi. 2019-y. adti.uz
4. 4.Г.В. Морозова “Развитие системы налогообложения доходов физических лиц”. Автореферат дисс. Москва. 2009. 4-с. <http://kontentus.ru>
5. 5.Хайдаров Н.Х. “Махаллий бюджетлар: муаммо ва инновацион ёчимлар”. Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий журнали. 2-сон. iqtisodiyot.tsue.uz

Yashil

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

